

“KELAJAK SOATI” MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH BO‘YICHA TARBIYACHILAR VA O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK YO‘RIQNOMA

I. YO‘RIQNOMANING MAQSADI VA VAZIFALARI

Mazkur metodik yo‘riqnoma “Kelajak soati” mashg‘ulotlarini tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali tashkil etish hamda o‘tkazishda tarbiyachi va o‘qituvchilarga metodik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida ishlab chiqilgan.

“Kelajak soati” mashg‘ulotlarining mazmuni, asosiy yo‘nalishlari, tashkil etish tartibi va o‘quv yuklamasi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, Konsepsiya hamda maktabgacha ta’lim, 1–4-, 5–8- va 9–11-sinflar uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida belgilangan.

Mazkur yo‘riqnomada ushbu umumiy talablarni amaliyotga tatbiq etishda tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning yosh, psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan metod va vositalarni tegishli sinf yoki guruh bosqichiga muvofiq tanlash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Yo‘riqnoma quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) maktabgacha ta’lim (bog‘cha) bosqichi kesimida metodik tavsiyalar;
- 2) tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning yosh bosqichlari bo‘yicha umumiy tavsif;
- 3) barcha sinf va guruhlar uchun umumiy bo‘lgan tashkiliy-metodik talablar;
- 4) tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning yosh bosqichlari bo‘yicha umumiy tavsif;
- 5) 1–4-sinflar kesimida metodik tavsiyalar;
- 6) 5–8-sinflar kesimida metodik tavsiyalar;
- 7) 9–11-sinflar kesimida metodik tavsiyalar;
- 8) oila va jamoatchilik bilan hamkorlikni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar;
- 9) video va boshqa o‘quv materiallaridan foydalanishda yoshga moslik talablari;
- 10) tarbiyachi va o‘qituvchi uchun umumiy metodik tavsiyalar.

Mazkur yo‘riqnomaning IV–VII bo‘limlarida har bir sinf yoki guruh kesimida tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, mashg‘ulot jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar hamda tavsiya etiladigan yondashuvlar va faoliyat turlari yoritilgan.

II. MASHG‘ULOTNING UMUMIY TUZILISHI VA TASHKIL ETISH TALABLARI

2.1. “Kelajak soati” mashg‘ulotlarini tashkil etish tartibi

“Kelajak soati” mashg‘ulotlari tasdiqlangan o‘quv dasturi va taqvim-mavzu rejaga muvofiq tashkil etiladi. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish vaqti, davomiyligi hamda o‘quv yilidagi umumiy soatlar miqdori amaldagi tegishli me‘yoriy hujjatlar asosida belgilanadi.

Har bir oy uchun belgilangan mavzuni o‘zlashtirish jarayoni o‘zaro uzviy bog‘langan bosqichlar asosida tashkil etiladi. Bunda dastlab o‘quvchilarga mavzuning mazmuni va asosiy tushunchalari ochib beriladi, keyingi bosqichda oila bilan hamkorlikda mavzu yuzasidan fikr almashish tashkil etiladi, undan so‘ng o‘quvchilarning mustaqil ijodiy-amaliy faoliyati yo‘lga qo‘yiladi hamda yakuniy bosqichda o‘zlashtirilgan bilim, shakllangan munosabat va bajarilgan faoliyat yuzasidan xulosa hamda refleksiya amalga oshiriladi.

O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, yakuniy faoliyat va natijalarni ifodalash shakllari farqlanadi. Jumladan, kichik sinflarda fikr va xulosalar og‘zaki bayon, rasm, kollaj yoki boshqa ijodiy ishlar orqali, yuqori sinflarda esa yozma ish, esse, insho, tadqiqot yoki loyiha shaklida ifodalanishi mumkin.

Mazkur metodik izchillik IV–VII bo‘limlarda tegishli sinflar kesimida batafsil yoritilgan.

2.2. Mashg‘ulotning asosiy tarkibiy qismlari

“Kelajak soati” mashg‘ulotlarini tashkil etishda quyidagi tarkibiy qismlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) **Vatanparvarlik tuyg‘usi va fuqarolik mas‘uliyatini shakllantirish.** Mashg‘ulotni davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish ruhida boshlash;
- 2) **Qiziqish uyg‘otish va dastlabki tahlil.** O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha boshlang‘ich fikrlarini aniqlash hamda tengdoshlarning ijobiy tajribasini aks ettiruvchi qisqa media materialni namoyish etish;
- 3) **Muammoli vaziyat va amaliy muhokama.** Hayotiy vaziyatlar, real misollar va o‘ylantiruvchi savollar orqali mavzuni chuqur tahlil qilish;
- 4) **Oilaviy hamkorlik.** Oila a‘zolarining mazkur mavzu yuzasidan bildirgan fikrlari va munosabatlarini mashg‘ulot jarayoniga bog‘lab o‘rganish;
- 5) **Ko‘rgazmali ta‘lim yoki vizual materiallardan foydalanish.** Mavzuni ochib berishga xizmat qiluvchi qisqa videomateriallardan maqsadli va unumli foydalanish;
- 6) **Ijodiy faollik.** O‘quvchilarning egallagan bilimlarini amaliy va ijodiy topshiriqlar orqali namoyon etishini ta‘minlash;

7) Xulosa, refleksiya va o‘zini baholash. Mashg‘ulot yakunida umumiy xulosalarga kelib, o‘zaro fikr almashish va refleksiya o‘tkazish.

Mazkur tarkibiy qismlar Mashg‘ulotning mazmuni, maqsadi va tarbiyalanuvchi hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, tegishli tartibda qo‘llaniladi.

III. TARBIYALANUVCHI VA O‘QUVCHILARNING YOSH BOSQICHLARI BO‘YICHA UMUMIY TAVSIF

“Kelajak soati” mashg‘ulotlarini tashkil etishda tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim metodik talab hisoblanadi.

Sinflar	Yosh	Xususiyatlar	Asosiy metodlar
Maktabgacha ta’lim (bog‘cha)	3–7 yosh	Taqlid va his-tuyg‘ular ustuvorligi, ko‘rgazmali-harakatli tafakkur, o‘yin orqali o‘rganish	Ertak, ko‘rgazmali suhbat, rasm/applikatsiya, rolli o‘yin unsurlari
1–4-sinflar	7–10 yosh	Ibrat, taqlid, o‘yin, kuzatish, his-tuyg‘ular ustuvorligi	Hikoya, animatsion film, rasm, rolli o‘yin, ibratli misol
5–8-sinflar	11–14 yosh	Axloqiy tanlov, raqamli va media madaniyat, milliy o‘zlik, tarixiy xotira	Insho, esse, video, muhokama, keys, debat, loyiha
9–11-sinflar	15–17 yosh	Fuqarolik pozitsiyasi, kasbiy maqsad, mustaqil fikr, innovatsiya	Insho, esse, tadqiqot, taqdimot, volontyorlik, startap

Mazkur bosqichlar umumiy metodik yo‘nalish sifatida belgilanadi. Bir bosqich doirasida ham tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning rivojlanish darajasi bir xil bo‘lmaganligi sababli mashg‘ulot mazmuni, topshiriqlar va metodlar muayyan sinf yoki guruhning yosh xususiyatlariga muvofiq moslashtiriladi.

IV. MAKTABGACHA TA’LIM (BOG‘CHA) BOSQICHI UCHUN YOSH GURUHLARI KESIMIDA METODIK TAVSIYALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Kelajak soati" tarbiyaviy mashg'ulotlari 3–7 yoshli tarbiyalanuvchilarni qamrab oladi va kichik, o'rta, katta hamda tayyorlov guruhleri kesimida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tashkil etiladi. Har bir oylik mavzu "Bilish – Munosabat – Amal – Refleksiya" bosqichlari asosida, o'yin, kuzatish, suhbat va ijodiy-amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi.

4.1. Kichik guruh (3–4 yosh)

Yosh xususiyatlari

- 1) diqqat beqaror va qisqa muddatli bo'lib, asosan yorqin va harakatli obyektlarga qaratiladi;
- 2) idrok va tafakkur ko'rgazmali-harakatli xususiyatga ega, tarbiyalanuvchi narsani ko'rish va ushlab ko'rish orqali biladi;
- 3) nutq faol shakllanish bosqichida bo'lib, so'z boyligi cheklangan;
- 4) taqlid qilish orqali o'rganish ustuvor, kattalarning xatti-harakati namuna vazifasini bajaradi;
- 5) mustaqillik darajasi past, tarbiyachi yordamiga ehtiyoj yuqori.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) juda sodda, qisqa va aniq jummalardan foydalanish;
- 2) mashg'ulotni o'yin shaklida, harakat va his-tuyg'ularni jalb etgan holda tashkil etish;
- 3) tayyor kontur, shablon va ko'rgazmali vositalardan foydalanish (bo'yash, oddiy applikatsiya);
- 4) faoliyat davomiyligini qisqa tutish va tez-tez faoliyat turini almashtirib turish;
- 5) tarbiyachining ijobiy namunasi va rag'batlantirishiga ustuvor o'rin berish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Ertak, ko'rgazmali suhbat, kuzatish, tayyor konturni bo'yash, oddiy applikatsiya, she'r yoki qo'shiq, rolli o'yin unsurlari.

4.2. O'rta guruh (4–5 yosh)

Yosh xususiyatlari

- 1) diqqat kichik guruhga nisbatan birmuncha barqarorlashadi;
- 2) so'z boyligi kengayadi, sodda gaplar bilan fikr bildiradi;
- 3) oddiy sabab-oqibat bog'lanishlarini anglay boshlaydi;
- 4) tengdoshlar bilan birgalikda o'ynash va ishlashga qiziqish ortadi;
- 5) mustaqil harakatlarga intilish kuchayadi, biroq tarbiyachi yordamiga hali ehtiyoj bor.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) sodda savol-javob va qisqa suhbatlardan foydalanish;

- 2) applikatsiya, kollaj kabi faoliyatlarni tarbiyachining o'zina yordami bilan tashkil etish;
- 3) juftlik va kichik guruhda birgalikda ishlash imkoniyatini yaratish;
- 4) mavzuni tarbiyalanuvchining kundalik hayoti va oilasi bilan bog'lash;
- 5) ijobiy his-tuyg'ularni so'z va harakat orqali ifodalashga o'rgatish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Suhbat, applikatsiya, rolli o'yin, kollaj, qisqa videomaterial, she'r yoki qo'shiq.

4.3. Katta guruh (5–6 yosh)

Yosh xususiyatlari

- 1) diqqatni nisbatan uzoqroq muddat jamlash qobiliyati shakllanadi;
- 2) mustaqil fikr bildirish va oddiy xulosa chiqarish imkoniyati kengayadi;
- 3) qoidalarga amal qilish va navbat kutish ko'nikmasi mustahkamlanadi;
- 4) topshiriqni deyarli mustaqil bajarishga intiladi;
- 5) tengdoshlar jamoasida o'z o'rnini anglash kuchayadi.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) "nima uchun?", "qanday?" kabi ochiq savollardan foydalanish;
- 2) topshiriqni deyarli mustaqil bajarish imkoniyatini yaratish, yordamni faqat zarur holatda berish;
- 3) kichik guruh loyihalari va birgalikdagi ijodiy ishlarni tashkil etish;
- 4) o'z ishini og'zaki izohlashga (nima va nima uchun qilganini aytib berishga) o'rgatish;
- 5) oila bilan hamkorlikdagi topshiriqlarni kengaytirish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Muhokama, rolli o'yin, deyarli mustaqil applikatsiya yoki rasm, kichik loyiha, plastilin yoki konstruktor bilan ishlash.

4.4. Tayyorlov guruhi (6–7 yosh)

Yosh xususiyatlari

- 1) diqqat va idrok nisbatan barqaror, maktabga tayyorgarlik darajasida;
- 2) fikrni izchil va tushunarli bayon qilish qobiliyati shakllangan;
- 3) mustaqil tanlov qilish va topshiriqni oxiriga yetkazish ko'nikmasi rivojlangan;
- 4) guruh oldida o'z ishini taqdim etishga qiziqish ortadi;
- 5) maktab hayotiga psixologik va ijtimoiy jihatdan tayyorgarlik shakllanadi.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) tarbiyalanuvchining fikrini to'liqroq va izchil bayon qilishga imkon yaratish;
- 2) ijodiy ishni mustaqil tanlash va bajarishga sharoit yaratish (rasm, applikatsiya, kichik maket);

- 3) yakuniy ishni guruh oldida taqdim etish va qisqa izoh berishni tashkil etish;
- 4) guruh bo‘lib birgalikda ishlashni (umumiy maket, kompozitsiya) rag‘batlantirish;
- 5) maktabga tayyorgarlik nuqtai nazaridan mustaqillik va mas’uliyatni tarbiyalash.

Tavsiya etiladigan metodlar

Mustaqil rasm va applikatsiya, guruh maketi yoki kompozitsiyasi, taqdimot, qisqa og‘zaki hikoya, kollektiv ijodiy ish.

4.5. Maktabgacha ta’lim bosqichi bo‘yicha qiyosiy jadval

Guruh	Yosh	Rivojlanish xususiyati	Asosiy faoliyat turi	Ifodalash shakli
Kichik guruh	3–4 yosh	Ko‘rgazmali-harakatli tafakkur, taqlid orqali o‘rganish	O‘yin, ertak, kuzatish	Tayyor konturni bo‘yash, oddiy applikatsiya
O‘rta guruh	4–5 yosh	So‘z boyligi kengayishi, tengdoshlarga qiziqish ortishi	Suhbat, juftlik/kichik guruh ishi	Applikatsiya, kollaj (yordam bilan)
Katta guruh	5–6 yosh	Diqqat barqarorlashuvi, mustaqillikka intilish	Muhokama, kichik loyiha	Deyarli mustaqil rasm yoki applikatsiya
Tayyorlov guruhi	6–7 yosh	Izchil fikr bayoni, maktabga tayyorgarlik	Taqdimot, jamoaviy ish	Mustaqil ijodiy ish va taqdimot

V. 1–4-SINFLAR UCHUN SINF KESIMIDA METODIK TAVSIYALAR

1–4-sinflar uchun ishlab chiqilgan “Kelajak soati” o‘quv dasturini amalga oshirishda o‘quvchilarning yoshiga xos bilish, muloqot va mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish nazarda tutiladi.

5.1. 1-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) diqqatni jamlash davomiyligi nisbatan qisqa bo‘lib, faoliyat turlarini almashtirib turish ehtiyojini yuzaga keltiradi;

- 2) tafakkur asosan konkret-obrazli xususiyatga ega;
- 3) mavhum tushunchalarni aniq hayotiy misollar, tasvirlar va vaziyatlar orqali o'zlashtirish samarali;
- 4) o'qish va yozish ko'nikmalari shakllanish bosqichida bo'ladi;
- 5) kattalarning ijobiy namunasi va rag'batlantirishi muhim ahamiyatga ega.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) tushuntirishlarda sodda, aniq va qisqa jumladan foydalanish;
- 2) mavhum tushunchalarni kundalik hayotiy misollar orqali izohlash;
- 3) mashg'ulot davomida faoliyat turlarini almashlab borish;
- 4) rasm, video, ertak, rolli o'yin va boshqa ko'rgazmali vositalardan samarali foydalanish;
- 5) uzun yozma topshiriqlar o'rniga og'zaki javob, rasm, bo'yash yoki amaliy faoliyatni tashkil etish;
- 6) oilaviy topshiriqlarni ota-ona ko'magida bajarish imkoniyatini nazarda tutish;
- 7) o'quvchilarni rag'batlantirish va ijobiy fikr bildirishga ustuvor ahamiyat berish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Hikoya, ko'rgazmali suhbat, savol-javob, rolli o'yin, rasm chizish, bo'yash, applikasiya, qisqa videomaterial va she'r yoki qo'shiqdan foydalanish.

5.2. 2-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) diqqatni jamlash qobiliyati 1-sinfga nisbatan rivojlangan;
- 2) sodda matnlarni o'qish va qisqa fikrlarni yozma ifodalash imkoniyati kengayadi;
- 3) sabab-oqibat munosabatlarini sodda darajada tushunish shakllanadi;
- 4) juftlik va kichik guruhlarda ishlashga qiziqish ortadi.

mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) 3–4 gapdan iborat qisqa yozma fikrlardan foydalanish;
- 2) juftlik va kichik guruhlarda topshiriqlar tashkil etish;
- 3) mavzularni o'quvchining kundalik hayotiy tajribasi bilan bog'lash;
- 4) intervyu, kollaj va sodda sahna ko'rinishlaridan foydalanish;
- 5) o'z-o'zini baholashning sodda shakllarini joriy etish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Hikoya-muhokama, savol-javob, kichik intervyu, rasm, kollaj, qisqa yozma izoh, rolli o'yin va guruhiiy faoliyat.

5.3. 3-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) mantiqiy bog'lanishlarni tushunish va sodda tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi;

- 2) tengdoshlar fikriga qiziqish ortadi;
- 3) kichik guruhlarda nisbatan mustaqil faoliyat yurita oladi;
- 4) o'z fikrini sabab bilan asoslashga ehtiyoj shakllanadi.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi ochiq savollardan foydalanish;
- 2) kichik loyihalarni bosqichma-bosqich tashkil etish;
- 3) guruhdagi o'quvchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlash;
- 4) o'quvchining o'z fikrini asoslashga sharoit yaratish;
- 5) ijodiy va amaliy topshiriqlarni kengaytirish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Kichik loyiha, sahna ko'rinishi, intervyu, sinf muhokamasi, rolli vaziyatlar va guruhli topshiriqlar.

5.4. 4-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) diqqatni barqaror jamlash qobiliyati rivojlangan;
- 2) mustaqil fikr bildirish va dastlabki tahliliy yondashuv shakllanadi;
- 3) qisqa yozma fikr va xulosalarni izchil bayon qilish imkoniyati kengayadi;
- 4) jamoaviy faoliyatda shaxsiy mas'uliyatni anglash kuchayadi;
- 5) keyingi ta'lim bosqichiga o'tishga tayyorgarlik shakllanadi.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) qisqa insho, esse va yozma xulosalardan foydalanish;
- 2) muhokama jarayonida turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash;
- 3) sodda tadqiqot va ma'lumot to'plash topshiriqlarini tashkil etish;
- 4) natijalarni sinf oldida taqdim etishga imkon yaratish;
- 5) o'z faoliyatini baholashning sodda shakllaridan foydalanish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Qisqa insho va esse, kichik tadqiqot, taqdimot, muhokama, sinf loyihalari va ijodiy topshiriqlar.

5.5. 1–4-sinflar bo'yicha qiyosiy jadval

Sinf	Diqqat va tafakkur	Asosiy faoliyat turi	Yozma ish darajasi	Alohida e'tibor
1-sinf	Diqqat qisqa, konkret-obrazli tafakkur	O'yin, ertak, rasm, video	Yozma ish talab qilinmaydi	Faoliyat turini tez almashtirish

2-sinf	Diqqat rivojlangan, sabab-oqibat tushunchasi	Juftlik/kichik guruh ishi, kollaj	3–4 gapli qisqa fikr	O‘z-o‘zini baholash unsurlari
3-sinf	Mantiqiy bog‘lanish, sodda tahlil	Kichik loyiha, muhokama	Qisqa asoslangan fikr	Guruh ichida vazifa taqsimoti
4-sinf	Barqaror diqqat, tahliliy yondashuv	Muhokama, kichik tadqiqot, taqdimot	Qisqa insho/esse	Keyingi bosqichga tayyorgarlik

VI. 5–8-SINFLAR UCHUN SINFLIK KESIMIDA METODIK TAVSIYALAR

5–8-sinflarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘z nuqtayi nazarini asoslash, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va ijtimoiy masalalarga munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

6.1. 5-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) boshlang‘ich ta’limdan umumiy o‘rta ta’limning keyingi bosqichiga o‘tish davri bo‘lib, fanlar sonining ortishi diqqatni taqsimlash ko‘nikmasini talab qiladi;
- 2) tafakkur konkret-obrazlikdan mavhum-mantiqiy tafakkurga o‘tish bosqichida bo‘ladi;
- 3) yangi sinf jamoasi va o‘qituvchilarga ijtimoiy moslashuv jarayoni kechadi;
- 4) mustaqil ish yuritish va o‘z vaqtini rejalashtirish ko‘nikmalari endigina shakllanmoqda.

Mashg‘ulotni tashkil etishda e‘tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) vizual va interfaol metodlardan voz kechmagan holda, topshiriqlar murakkabligini bosqichma-bosqich oshirib, muhokama va yozma ishga o‘tish;
- 2) kichik guruh ishlarida yo‘naltiruvchi nazoratni saqlash;
- 3) mavzularni o‘quvchining yangi sinf tajribasi bilan bog‘lash;
- 4) yangi jamoaga moslashuvga oid faoliyatlarga alohida vaqt ajratish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Hikoya-muhokama, infografika, kichik keys, guruh loyihasi, intervyu va sodda debat mashqlari.

6.2. 6-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) o‘smirlik davrining boshlanishi bilan o‘z-o‘zini anglash kuchayadi;
- 2) ijtimoiy me‘yor va qoidalarga nisbatan dastlabki tanqidiy qarash paydo bo‘ladi;
- 3) tengdoshlar bilan muloqot va guruhga mansublik alohida ahamiyat kasb etadi;
- 4) raqamli muhitda mustaqil vaqt o‘tkazish sezilarli darajada ortadi.

Mashg‘ulotni tashkil etishda e‘tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) o‘quvchining shaxsiy fikri va his-tuyg‘ulariga hurmat bilan yondashish;
- 2) turli, asoslangan nuqtayi nazarlarni tinglash va muhokama qilish uchun sharoit yaratish;
- 3) raqamli xavfsizlik va media madaniyat mavzularini amaliy misollar bilan chuqurlashtirish;
- 4) guruh ishida har bir o‘quvchining teng ishtirokini ta‘minlash.

Tavsiya etiladigan metodlar

Keys-stadi, rolli vaziyatlar, yo‘naltirilgan debat, kichik videoloyiha va guruhiy muhokama.

6.3. 7-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) tanqidiy-tahliliy fikrlash faol rivojlanadi;
- 2) ijtimoiy adolat, huquq va shaxsiy erkinlik masalalariga qiziqish ortadi;
- 3) internetda mustaqil vaqt ko‘p o‘tkaziladi, media ta‘siriga moyillik yuqori;
- 4) tengdoshlar oldida o‘z pozitsiyasini asoslashga intilish kuchayadi.

Mashg‘ulotni tashkil etishda e‘tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) tuzilgan debat va muhokama shakllaridan foydalanish;
- 2) huquqiy va kiberxavfsizlik mavzularini real hayotiy vaziyatlar asosida yoritish;
- 3) media savodxonlik va axborotning ishonchligini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- 4) ochiq savollar orqali mustaqil va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Debat, keys-stadi, videopodkast loyihalari, kichik tadqiqot va guruhiy taqdimotlar.

6.4. 8-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va yetakchilik ko‘nikmalari rivojlanadi;
- 2) kasb-hunar va kelajakka bo‘lgan qiziqish shakllana boshlaydi;
- 3) jamoaviy faoliyatda shaxsiy mas‘uliyatni his qilish kuchayadi;
- 4) yuqori ta‘lim bosqichiga (9–11-sinf) o‘tishga tayyorgarlik davri boshlanadi.

Mashg‘ulotni tashkil etishda e‘tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) yozma ishlar, tadqiqot va loyiha topshiriqlarini mazmunan murakkablashtirish;

Sinf	Rivojlanish xususiyati	Asosiy faoliyat turi	Yozma darajasi	ish	Alohida e'tibor
5-sinf	Bosqichga o'tish, moslashuv davri	Hikoya-muhokama, kichik keys, guruh loyihasi	Vizual, yozma	qisqa	Yangi jamoaga moslashuv
6-sinf	O'z-o'zini anglash kuchayadi	Keys-stadi, yo'naltirilgan debat, videoloyiha	Asoslangan fikr	qisqa	Raqamli xavfsizlik, his-tuyg'uga hurmat
7-sinf	Tanqidiy-tahliliy fikrlash faollashadi	To'liq debat, keys-stadi, videopodkast	Dalillangan insho/esse		Media savodxonlik
8-sinf	Yetakchilik, kasbga qiziqish shakllanadi	Tadqiqot, taqdimot, ijtimoiy loyiha	Murakkabroq yozma topshiriqlar		Kasbga yo'naltirish, mustaqil rahbarlik

2) kasb-hunarga oid qiziqish va qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan faoliyatlarni kiritish;

3) guruh loyihalarida mustaqil rahbarlik va tashkilotchilik imkoniyatini berish;

4) ijtimoiy mas'uliyatni oshiruvchi loyiha va tashabbuslarga jalb qilish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Tadqiqot, taqdimot, debat, ijtimoiy loyiha, videopodkast va ijodiy-amaliy loyihalar.

6.5. 5–8-sinflar bo'yicha qiyosiy jadval

VII. 9–11-SINFLAR UCHUN SINFLAR KESIMIDA METODIK TAVSIYALAR

9–11-sinflarda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, fuqarolik pozitsiyasi, kasbiy yo'nalishi, ijtimoiy faolligi va kelajak faoliyatiga tayyorgarligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

7.1. 9-sinf

Yosh xususiyatlari

1) fuqarolik ongi va jamiyatdagi o'rnini anglash jarayoni faollashadi;

- 2) shaxsiy qarashlar va qadriyatlar tizimi shakllana boshlaydi;
- 3) kelajak kasbi haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladi;
- 4) ijtimoiy masalalarga qiziqish ortadi.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi muhokama va insho topshiriqlaridan foydalanish;
- 2) kasbiy qiziqish va qobiliyatlarni aniqlashga yo'naltirilgan faoliyatlarni kiritish;
- 3) ijtimoiy loyiha va tashabbuslarga jalb qilish;
- 4) mustaqil fikr bildirishni rag'batlantiruvchi ochiq savollardan foydalanish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Insho, sinf muhokamasi, kichik tadqiqot, guruh loyihasi va ijtimoiy so'rovnoma.

7.2. 10-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) mustaqil va tanqidiy fikrlash yetuklashadi;
- 2) akademik yozish va axborotni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi;
- 3) kasb tanlash jarayoni faollashadi, oliy ta'limga qiziqish ortadi;
- 4) jamiyatdagi murakkab masalalarga tanqidiy qiziqish paydo bo'ladi.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) to'liq tadqiqot va taqdimot shakllaridan foydalanish;
- 2) muammoga yechim taklif qilishga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlar berish;
- 3) kasbiy yo'nalish va oliy ta'limga tayyorgarlik bilan bog'liq faoliyatlarni kiritish;
- 4) mutaxassislar bilan muloqot va tajriba almashish imkoniyatini yaratish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Tadqiqot, taqdimot, debat, ijtimoiy loyiha, innovatsion loyiha va mutaxassislar bilan suhbat.

7.3. 11-sinf

Yosh xususiyatlari

- 1) mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati yetuklashgan;
- 2) fuqarolik va kasbiy mas'uliyatni anglash kuchaygan;
- 3) kelajak rejalarini belgilash, ta'lim yoki mehnat faoliyatiga tayyorgarlik jarayoni faollashadi;
- 4) mustaqil hayotga moslashuv bilan bog'liq masalalarga qiziqish ortadi.

Mashg'ulotni tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

- 1) mustaqil tadqiqot va yakuniy loyihalarni to'liq bajarish imkoniyatini yaratish;
- 2) ijtimoiy tashabbus va portfolio taqdimotiga alohida ahamiyat berish;

Sinf	Rivojlanish xususiyati	Asosiy faoliyat turi	Yozma ish darajasi	Alohida e'tibor
9-sinf	Fuqarolik ongi va ijtimoiy mas'uliyatni anglash kuchayadi	Muhokama, kichik tadqiqot, ijtimoiy so'rovnoma	Insho	Kasbiy yo'naltirishning boshlanishi
10-sinf	Akademik yozish va tanqidiy tahlil yetuklashadi	Tadqiqot, taqdimot, debat, innovatsion loyiha	To'liq tadqiqot/esse	Kasb va OTM haqida amaliy yo'naltirish
11-sinf	Mustaqil qaror qabul qilish yetuklashgan	Yakuniy loyiha, ijtimoiy tashabbus, portfolio	Mustaqil yakuniy tadqiqot yoki loyiha	Kelajak rejasi, kasbiy mas'uliyat

3) mutaxassislar bilan uchrashuv va amaliy loyihalar orqali kasbiy yo'naltirishni kuchaytirish;

4) o'quvchining kelajak maqsadlarini belgilashiga metodik ko'mak ko'rsatish.

Tavsiya etiladigan metodlar

Mustaqil tadqiqot, yakuniy loyiha, ijtimoiy tashabbus, portfolio taqdimoti, mutaxassislar bilan uchrashuv va amaliy loyiha.

7.4. 9–11-sinflar bo'yicha qiyosiy jadval

VIII. OILA VA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH

“Kelajak soati” mashg'ulotlarini tashkil etishda oila va jamoatchilik bilan hamkorlik tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning mavzuga oid bilim va tasavvurlarini hayotiy tajriba bilan bog'lashga xizmat qiladi.

1) maktabgacha ta'lim bosqichida oila bilan hamkorlik tarbiyachining kundalik qisqa tavsiyalari, ota-onalar bilan suhbat va oddiy uy topshiriqlari (masalan, birga rasm ko'rish, qo'shiq aytish) orqali amalga oshiriladi;

2) 1–2-sinflarda oilaviy topshiriqlar asosan og'zaki suhbat shaklida tashkil etiladi;

3) 3–4-sinflarda suhbat natijalari qisqa yozma fikr, rasm yoki ijodiy ish shaklida ifodalanishi mumkin;

- 4) oila a'zolarini mashg'ulot jarayoniga jalb etish tegishli mavzuning mazmuni va maqsadidan kelib chiqib amalga oshiriladi;
- 5) yuqori sinflarda ota-onalar, soha mutaxassisleri, jamoatchilik vakillari va boshqa manfaatdor tomonlarni tajriba almashish hamda amaliy muloqot uchun jalb etish tavsiya etiladi;
- 6) hamkorlik jarayonida tarbiyalanuvchi va o'quvchining yosh xususiyatlari, shaxsiy daxlsizligi va pedagogik-psixologik xavfsizligi ta'minlanadi.

IX. VIDEO VA O'QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH

Video va boshqa media materiallardan foydalanishda ularning mazmuni, davomiyligi, tili, vizual xususiyatlari hamda tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning yoshiga muvofiqligi hisobga olinadi.

- 1) maktabgacha ta'lim bosqichida 1–2 daqiqalik, yorqin, sodda va musiqiy hamrohlikdagi qisqa animatsion lavhalardan foydalanish tavsiya etiladi;
- 2) videomateriallarning davomiyligi odatda 3–5 daqiqadan oshmasligi, qisqa va mazmunli lavhalardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq;
- 3) 1–2-sinflarda 1–3 daqiqalik qisqa, sodda va ko'rgazmali videolardan foydalanish tavsiya etiladi;
- 4) ta'limiy kontent o'quvchilarning yoshiga mos, tushunarli va tarbiyaviy mazmunga ega bo'lishi lozim;
- 5) zarur hollarda inklyuziv ta'limni ta'minlash maqsadida subtitrlardan foydalaniladi;
- 6) maktabgacha ta'lim bosqichida qisqa ertak va animatsion lavhalardan, 1–2-sinflarda animatsion va ko'rgazmali, 3–4-sinflarda hikoyaviy va hujjatli, 5–8-sinflarda muammoli vaziyat va keysga asoslangan, 9–11-sinflarda esa tahliliy va tadqiqotga yo'naltirilgan media materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

X. TARBIYACHI VA O'QITUVCHI UCHUN UMUMIY METODIK TAVSIYALAR

Mazkur bo'limdagi tavsiyalar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi hamda o'qituvchiga birdek tegishli. “Kelajak soati” mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda tarbiyachi (o'qituvchi):

- 1) o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi;
- 2) murakkab tushunchalarni sodda, aniq va hayotiy misollar asosida tushuntirishi;
- 3) o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb etishi;
- 4) savol-javob, muhokama, ijodiy va amaliy topshiriqlardan maqsadli foydalanishi;
- 5) o'quvchilarning fikrini hurmat qilishi va turli nuqtayi nazarlarni konstruktiv muhokama qilish uchun sharoit yaratishi;

- 6) baholashda o'quvchining ishtiroki, faolligi va rivojlanish dinamikasini hisobga olishi;
- 7) mashg'ulot jarayonini "Bilish – Munosabat – Amal – Refleksiya" izchilligi asosida tashkil etishi;
- 8) mavzularni Vatan, ustozga hurmat, davlat ramzlari, qonunga hurmat, Vatan himoyasi, ajdodlar merosi, milliy o'zlik, qadriyatlar va tarixiy xotira kabi ma'naviy-tarbiyaviy yo'nalishlar bilan uzviy bog'lashi;
- 9) foydalaniladigan video, rasm, matn va boshqa materiallarning mazmuni hamda yoshga muvofiqligini oldindan tekshirishi;
- 10) tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning sha'ni, qadr-qimmati va psixologik xavfsizligini ta'minlashi;
- 11) zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi, qo'rqituvchi, kamsituvchi yoki tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelmaydigan materiallardan foydalanmasligi lozim.